

MUXAMMAD GABDUGALIMOVICH DAVLETSHIN HAYOTI VA IJODIY MEROSI
*Nishanova Zulfizar Yashin qizi,
Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Maqolada O’zbekistonda psixologiya fanining rivojiga ulkan hissa qo’shgan olim, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan fan arbobi, psixologiya fanlari doktori, professor, O’zbekistondagi psixologlar assotsiatsiyasining birinchi raisi Muhammad Gabdugalimovich Davletshinning hayoti va ijodiy merosi ilmiy tahlil etilgan. Unda olimning hayoti va ijodi shartli ravishda uch davrga bo’lib tahlil etilgan.

Kalit so’zlar: M.G.Davletshin, ustoz, tarixiy-psixologik tadqiqot, rahbarlik va pedagogik faoliyat, ijodiy meros.

**ЖИЗНЬ И ТВОРЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ МУХАММАДА ГАБДУЛГАЛИМОВИЧА
ДАВЛЕТШИНА**

*Nishanova Zulfizar Yashinovna,
соискатель Ташкентского государственного педагогического университета*

Аннотация. В статье анализируется жизнь и творческое наследие Давлетшина Мухаммада Габдулгалимовича, ученого, внесшего большой вклад в развитие науки психологии в Узбекистане, заслуженного деятеля Узбекистана, доктора психологических наук, профессора, первого председателя Ассоциации психологов Узбекистана. В ней жизнь и деятельность ученого условно разделены на три периода.

Ключевые слова: М. Г.Давлетшин, педагог, историко-психологическое исследование, руководительская-педагогическая деятельность, творческое наследие.

**LIFE AND CREATIVE HERITAGE OF MUHAMMAD GABDULGALIMOVICH
DAVLETSHIN**

*Nishanova Zulfizar Yashinovna
is a researcher of the Tashkent State Pedagogical University*

Abstract. The article analyzes the life and creative heritage of Muhammad Gabdugalimovich Davletshin, a scientist who made a great contribution to the development of psychology in Uzbekistan, a scientist who served in Uzbekistan, doctor of psychology, professor, the first chairman of the Association of Psychologists in Uzbekistan. In it, the scientist's life and work are conventionally divided into three periods.

Keywords: M.G. Davletshin, teacher, historical-psychological research, leadership and pedagogical activities, creative heritage.

Kirish. O’zbekiston psixologiya fanining otasi Muhammad Gabdugalimovich Davletshin hayoti va ijodiy merosi hamda uning Vatanimiz psixologiya fani taraqqiyotiga qo’shgan hissasini yosh avlodga qoldirish maqsadida ushbu mavzuni maxsus tarixiy-psixologik tadqiqot predmeti sifatida o’rganishga ahd qildik.

Metodlar. Tadqiqotda biografik, bibliometrik, manbashunoslik metodlaridan foydalanildi. M.G.Davletshin 1923 yil 11 noyabrda Rossiya Federatsiyasining Orenburg shahrida tavallud topgan. Ularning otalari o’z davrining mashhur ziyolilaridan biri bo’lib, madrasa mudarrasi bo’lib faoliyat ko’rsatganlar. U II-jahon urushi boshlangan yili, ya’ni 1941 yil Toshkentdagagi 42-maktabni tamomlagan. M.G.Davletshinning hayot faoliyatini bir butun tizimga soladigan bo’lsak, u quyidagi ko’rinishda bo’ladi [2; 4-b.].

Natijalar. 1-davr. M.G.Davletshinning ishlab chiqarishdagi faoliyati (1941-1953y.y.). Bu davrda M.G.Davletshin o’z faoliyatini Toshkent aviatsiya korxonasining kadrlar tayyorlash bo’limida shogird-slesar’ lavozimidan boshlab, 1942 yil master instruktor lavozimiga ko’tarilgan. Bizning fikrimizcha, M.G.Davletshin o’zidagi rahbarlik faoliyatini pedagogika institutida faoliyat yuritgan davrlardagina ko’rsatib qolmay, hatto unga qadar bo’lgan davrda ham namoyon etgan edi. Bunday deyishimizga sabab, M.G.Davletshin 1946-1948 yillarda Toshkent shahrining SHayhontohur tumanida deputat lavozimida o’z faoliyatlarini olib borganlar. O’sha yillarning o’zida “O’zbekiston

maorif a'lochisi" belgisi, "Faxriy belgi" ordenlari bilan mukofatlangan.

1952 yilda O'zbekiston tibbiy xodimlarining Respublika qo'mitasida madaniy ishlar bo'limi lavozimida ishlagan. U respublikadagi madaniy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etib, aholining madaniy ehtiyojlarining qondirilishida, ma'naviyatini yuksaltirishda katta hissa qo'shgan.

2-davr. M.G.Davletshinning Toshkent davlat pedagogika institutidagi rahbarlik va pedagogik faoliyati (1953-2001 y.y.). M.G.Davletshin 1953 yilda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining tarix fakul'teti ekstern bo'limini tamomlagan. U 1954-1957 yillarda TDPIning psixologiya kafedrasи aspiranturasida tahsil olgan. Davletshinning ilmiy faoliyatida professor Platon Ivanovich Ivanovning xizmatlari katta. Bu haqda M.G.Davletshin quyidagi fikrlarni bildirgan: "1925 yilda P.I.Ivanov Toshkentga qayta tashkil etilgan qozoq pedagogika institutiga ishga taklif etiladi. O'sha yildan boshlab umrining oxirigacha Ivanov O'zbekistonda yashab, psixologiya fanining rivojiga ulkan hissa qo'shdi. 1941 yilda Toshkent davlat pedagogika institutida psixologiya kafedrasи tashkil etiladi" [1; 8-b.].

M.G.Davletshin 1957 yil Moskvadagi Psixologiya institutida "5-7 sinf o'quvchilarida texnik qiziqishlarni shakllantirish" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. U 1956 yildan Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining psixologiya kafedrasida pedagogik faoliyatini boshlagan. 1960 yilda olimga psixologiya kafedrasи dotsenti ilmiy unvoni berilgan. M.G.Davletshin 11 yil (1957-1968) mobaynida Nizomiy nomidagi TDPI da o'quv ishlari bo'yicha prorektor lavozimida faoliyat ko'rsatgan, universitetdagi o'quv-tarbiya jarayonini shakllantirish, takomillashtirish bo'yicha katta ish olib bordi.

M.G.Davletshin pedagogik va rahbarlik faoliyatini jamoatchilik ishlari bilan uyg'un holda olib borgan. Bunga 1960-1991 yillarda psixologlar jamiyatining Respublika bo'limi rayosat raisi bo'lib faoliyat ko'rsatganligi yorqin misol bo'la oladi. SHu bilan birga M.G.Davletshin keng xalq ommasining davlatdagi vakili sifatida faoliyat yuritgan, 1968-70 yillarda Toshkentdagi Yakkasaroy tumani deputati bo'lgan. 1978-1993 yillarda Nizomiy nomidagi TDPI qoshidagi pedagogik fanlar bo'yicha nomzodlik va doktorlik ilmiy darajasini berish bo'yicha ixtisoslashtirilgan Kengash a'zosi sifatida faoliyat yuritgan.

U 1971 yil Leningrad davlat universitetida akademik B.G.Anan'ev ilmiy maslahatchiligi ostida "O'quvchilarda texnik qobiliyatlar psixologiyasi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatl yoqlagan. 1972 yilda olimga psixologiya kafedrasи professori ilmiy unvoni berilgan.

M.G.Davletshin 1968 yildan 2001 yilgacha Nizomiy nomidagi TDPIning psixologiya kafedrasiga mudirlik qilgan. U boshqaruv va rahbarlik psixologiyasi asoslarini yaxshi bilgani uchun kafedrani mohirona boshqara olgan hamda kafedra institutdagi, 1998 yildan universitetdagi eng ilg'or kafedralardan biri bo'lgan. CHunki olim kafedra a'zolarining individual-psixologik xususiyatlarini bilganligi uchun har bir topshiriqni berishda, xodimning layoqati va qobiliyatiga yarasha ishni taqsimlagan. U boshchilik qilgan kafedrada faoliyat yuritgan professor-o'qituvchilar ustozdan pedagogik, ilmiy, boshqaruv faoliyati sir-asrorlarini o'rganishgan. Uning shogirdlaridan biri Z.T.Nishanova ustozdagagi ijobji xislatlar haqida quyidagilarni ta'kidlagan: "M.G.Davletshin o'zlarining haqiqiy psixolog ekanliklarini doimo namoyon qilganlar, ya'ni har bir shaxsning ijobji xislatlarini ko'ra olganlar. Ustoz bilan shuncha yillik muloqot davomida bir og'iz boshqalar haqida salbiy fikr bildirganlarini eshitmaganman" [3;7-b.].

Professor M.G.Davletshin mehnat ta'lifi va kasbga yo'llash muammolariga, texnik qiziqish va texnik qobiliyatlarni shakllantirishning psixologik xususiyatlariga, Respublikamizdagi pedagogika oliy o'quv yurtlari va universitetlarida o'qituvchi kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish muammolariga ko'p e'tibor beradi. M.G.Davletshinning ilmiy qiziqishlari asosan oliy maktablarda psixologiyani o'qitish samaradorligini oshirish muammolariga qaratilgan edi. Olim tomonidan O'zbekiston maktablarida psixologik xizmatni tashkil qilish, boshqarishning shakl va tizimi ishlab chiqildi. Professor M.G.Davletshin hozirgi zamon talablarini nazarda tutib, asosiy e'tiborni SHarq mutafakkirlarining psixologik qarashlarini o'rganish masalalari bilan oliy o'quv yurtlarida psixologiyani o'qitish va Respublika psixologlarining ilmiy tadqiqot ishlarida bu boy merosdan foydalanish masalasiga qaratgan.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng, 1991 yilda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika instituti qoshida psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini beradigan Ixtisoslashgan Kengash ochilishini asoslab bergen va 1991-1999 yillar davomida shu kengashni boshqargan. SHuni ta'kidlash joizki, mustaqillikdan oldin fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun

Moskva, Leningrad, Kiev kabi shaharlarga borib, dissertatsiyalar (rus tilida) yoqlanar edi. Birinchi o'zbek ayol psixologlari orasida fan doktori ilmiy darajasiga sazovar bo'lgan Vasilisa Mamanosirovna Karimovaning doktorlik dissertatsiyasi himoyasini bir marotabalik Kengashda muhokama qilinishida ham M.G.Davletshinning hissasi katta. SHu bilan birga M.G.Davletshin 1996-1999 yillarda O'zbekiston psixologlar assotsiatsiyasining birinchi raisi ham bo'lgan.

3-davr. M.G.Davletshinning ilmiy rahbarlik va uslubiy faoliyatni (1960 -2011)

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, psixologiya fanlari doktori, professor M.G.Davletshin o'zlarining umr daftalarini shox satrlar bilan bezay olgan buyuk inson. U Vatanimizdagi psixologiya fanining rivojlanishiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan olimdir. Domlaning bevosita rahbarligida 1 nafar fan doktori, 49 nafar fan nomzodlari etishib chiqdi. M.G.Davletshinni MDHda tanimaydigan psixolog yo'q, uning shogirdlari respublikamizdagi barcha oliy o'quv yurtlarida faoliyat ko'rsatishmoqda.

Professor M.G.Davletshin tomonidan psixologiya fanining turli masalalari bo'yicha 250ga yaqin ilmiy ish chop etilgan. Ustoz tomonidan qoldirilgan eng yirik monografiya va o'quv qo'llanmalar sirasiga "Qobiliyatlar va diagnostika" (1979), "Yosh va pedagogik psixologiya" (1974), "Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi" (1999), "Umumiy psixologiya" (2001), "Yosh va pedagogik psixologiya" (2004) va boshqalarni kiritish mumkin. U respublikada o'tkazilgan barcha ilmiy anjumanlar materiallarining va ilmiy to'plamlarning mas'ul muharriri bo'lgan.

Yosh avlodni tarbiyalash, oliy pedagogik ta'limni rivojlantirish, ilmiy va pedagogik kadrlarni tayyorlash sohasida olib borgan xizmatlari uchun M.G.Davletshinning hukumatimiz tomonidan bir necha orden, medal, faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan.

Xulosa. Shunday qilib, professor M.G.Davletshin O'zbekistonda psixologiya fanining rivojiga ulkan hissa qo'shgan, zabardast olim, mohir raxbar, sevimli USTOZ bo'lganlar.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. Давлетшин М.Г. И.П.Иванов основатель психологической школы в Узбекистане. // Психологические аспекты совершенствования подготовки учительских кадров в педвузах в условиях непрерывного образования. Тезисы докладов Республиканской научно-практической конференции. -Т. ТГПИ. 1991. -200 с.

2. Ergashev P.S. Professor M.G.Davletshin va uning ilmiy maktabi. // Zamonaviy psixologiyaning amaliy imkoniyatlari mazvusidagi xorijlik mutaxassislar ishtirokidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. – Toshkent: TDPU, 2018. – 547 b.

3. Nishanova Z.T. Ustozga ta'zim. // Psixologiya XX asr boshlarida. M.G.Davletshinnig 85 yillik tavallud ayyomiga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. -Т, TDPU. 2008.-334 b.